



"USTOZ-SHOGIRD" AN'ANALARINING YOSHLAR TA'LIM-TARBIYASIDAGI TUTGAN O'RNI

Abdullayeva Sabohat G'ayratullayevna

*NDU Pedagogika nazariyasi Pedagogik ta'limotlar tarixi tayanch doktoranti. Profi
University Navoiy filiali o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada, Sharq buyuklarining hayot yo'lida ularning asarlarida, "ustoz-shogird" an'alarining o'rni va uning yoritilishi tahlil qilinadi. Xususan, Kaykovus, Bahouddin Naqshband, Abduraxmon Jomiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Xusayn Voiz Koshifiy hayoti misolida ustoz-shogird an'analari qanday ifodalanganligi, ular o'rtasidagi do'stona va ma'naviy bog'lanish, axloqiy qadriyatlarining o'zaro ta'sir ko'rsatayotganligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Ustoz-shogird, qadriyat, an'ana, yoshlar, ta'lim-tarbiya, Ibn Sino, Al-Beruniy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Xusayn Voiz Koshifiy, Abu Nasr Farobiy.

Abstract: This article analyzes the role of the "teacher-student" tradition in the life path of Eastern greats and its illumination in their works. In particular, on the example of the lives of Kaykovus, Bahauddin Naqshband, Abdurahman Jami, Amir Temur, Alisher Navoi, Husayn Vaiz Kashifi, it is highlighted how the traditions of teacher-student are expressed, the friendly and spiritual connection between them, and the mutual influence of moral values.

Key words: Teacher-student, values, tradition, youth, education, Ibn Sina, Al-Biruni, Alisher Navoi, Mirzo Ulugbek, Husayn Vaiz Kashifi, Abu Nasr Farabi.

Аннотация: В данной статье анализируется место и освещение традиций "устоз-шогирд" в жизненном пути великих деятелей Востока в их произведениях. В частности, на примере жизни Кайковуса, Бахауддина Накшбанда, Абдурахмана Джамии, Амира Темура, Алишера Навои, Хусейна Ваиза Кашифи освещено, как выражаются традиции наставник-ученик, дружеская и духовная связь между ними, взаимодействие нравственных ценностей.

Ключевые слова: Учитель-ученик, ценности, традиции, молодежь, образование, Ибн Сина, Аль-Бируни, Алишер Навои, Мирзо Улугбек, Хусейн Ваиз Кашифи, Абу Наср Фараби.

O'zbekiston xalqining boy ma'naviy merosi, qadimiy urf-odat va an'analari orasida "ustoz-shogird" tizimi alohida o'rin tutadi. Bu an'ana asrlar davomida yosh avlodga bilim, hunar, odob-axloq singari muhim qadriyatlarni singdirishda, ularni komil inson etib tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan.

"Ustoz-shogird" tizimining ildizlari

Ustoz so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, tarbiyalovchi, murabbiy, rahnamo, o'qituvchi, muallim degan ma'nolarni anglatishi yozilgan. Demak, —ustoz nomi keng ma'noli so'z bo'lib, bu nomga muyassar bo'lgan kishiga har



tomonlarni yuksak mas'uliyat yuklatiladi. Shuning uchun ham xalq orasida: — “Ustoz ko'rgan”, “Ta'lim bergan ustozingga Rahmat”, “Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar” kabi ko'plab ibratli naqlar bor.

Sharqona tafakkurda ustoz – faqat dars o'rgatuvchi emas, balki hayot saboqlarini beruvchi, shogirdni tarbiyalovchi, uni ijtimoiy hayotga tayyorlovchi eng yaqin yo'l ko'rsatuvchi hisoblanadi. Ibn Sino, Beruniy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek kabi allomalar o'z ustozlaridan bilim olib, keyinchalik o'zlari ham shogirdlar tarbiyalab, bu zanjirli an'anani davom ettirganlar. Ularning ilmiy adabiy merosida “ustoz-shogird” an'anasiga oid ko'plab qarashlarni uchratish mumkin.

Qadimda har bir hunar muqaddas hisoblangan bo'lib, uni hurmatlab, e'zozlab kelganlar. Ota-bobolarimiz ustoz va shogirdlar uchun o'ziga xos odob-axloq, maxsus qonun-qoidalar, urf-odatlar, duolar, milliy an'analarni ishlab chiqqan bo'lib, bu qoidalarga qat'iy rioya qilganlar. Ustozning ham, shogirdning ham oldiga qo'yilgan o'ziga yarasha vazifalari va burchlari bo'lgan.

Rizouddin Ibn Fahriddin ustozlarga shunday nasihat qilgan edi: —Shogirdingizni har bir harakatlariga qarab turingiz, ularga xushmuomalalikni, go'zal-u shafqatli odatlarni tushuntiringiz, so'zlarini-yu fe'llarini yaxshilangiz, ust-boshlarini, kiyim-kechaklarini pok tutmaklari haqida nazorat aylangiz. Yomon xulqlar yuqumli bo'lganidan bir shogirdning yomon xulqi borligini bilsangiz, jumlasini barobar ko'rib, jumlasini foyda olajak ravishda o'rgatingiz, foydali ishlar, kerakli adablarning jumlasidan xabardor aylangiz, natijada bola mumkin qadar reja ila ish qilmoq, ehtiyotkorlik, poklik, ko'rkam tartib, ko'p foydasiga tirishmak kabi xosiyatlaringizni egallab oladi.

Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy Abdurahmon Jomiy yashaydigan mahallaga yaqin kelganda otdan tushib, ustozni yashaydigan mahalla ahli bilan quyuq salomlashib, hol-ahvol so'rab, otiga minmay Jomiy uyigacha piyoda borar ekan. Shunda bir temirchi so'rabdi: —Amir Navoiy, nechuk ustoz uyiga yetmay turib otdan tushib olasiz? Axir siz vazir a'zamsiz-ku! Sizga bundoq yurish yarashmas.

Alisher Navoiy jilmayib turib, shunday debdi: —Yo'q birodar, men hozir ustozim Abdurahmon Jomiy yashaydigan mahallaga keldim. Demak, bu yerda yashovchi har bir fuqaro ustozimning tobutkashlari hisoblanadi. Shundoq bo'lgach, nechun men ular, ya'ni siz muhtamlar oldida hurmatsizlik qilishim kerak. Ustozimni qandoq avaylab-e'zozlasam, sizlarni ham shundoq ko'rgumdir deya javob bergan. Shogirdning eng yaxshi xislati-poklikdir.

Xusayn Voiz Koshifiy shogird odobi haqida shunday deydi: —Ustoz qabuliga kirganda yoki ustozini ko'rganda, birinchi bo'lib salom berish; ustozning oldida oz gapirish va boshni oldinga egib turish, ko'zni har tomonga yugirtirmaslik; agar masala so'ramoqchi bo'lsa, oldin ustozdan ijozat olish; ustoz javob aytganda, e'tiroz bildirmaslik; ustoz oldida boshqalarni g'iybat qilmaslik; o'tirib-turishda hurmatni to'liq saqlash. Shogirdning ruhiy olamining muhim zamini ham bo'lib, ularga poklik, do'stlik, hamkorlik, hamjihatlik, sadoqat, mehr-muruvvatlilik, kasb tanlash imkoniyati, vatanparvarlik, milliy iftixor, insonparvarlik, xushmuomalalik, ozodalik, pokizalik,



samimiylik, ziyraklik, tashabbuskorlik, insofililik, rostgo'ylik, or-nomuslilik, hamjihatbarorlik, andishalik, kattalarni hurmat qilish, sof muhabbatni qadrlash, vazminlik, to'g'rilik, baynalminalchilik, ustozini hurmatlash, ota-onasini hurmatlash kabilar kiritiladi.

Abu Nasr Farobiy ustoz shogirdlariga qattiq zulm ham haddan tashqari ko'ngilchanlik qilmasligi lozimligi talabini qo'yadi. Chunki ortiqcha zulm shogirdga ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi, ustoz juda ham yumshoq ko'ngil bo'lsa, shogird uni mensimay qo'yadi va hattoki u beradigan bilimdan sovib qolishi

mumkin. Buyuk bobokolonimiz Mirzo Ulug'bek bolalarni guruh-guruh bo'lib o'qitishga, birgalikda raqobat qila olishga, ustozlarning esa odil va halol bo'lishga, ilmni o'rgatish jara'ida isbot talab qilmaydigan dalillar keltirishga, har bir mashg'ulotni yuksak saviyada o'tkazishga da'vat etadi, ana shu bilangina o'quvchilarni bilim olishga qiziqishi ortishi mumkinligini alohida ta'kidlaydi. Ustoz o'z shogirdiga beg'araz erdam ko'rsatishi, hech qachon zulm qilmasligi, ular orasidagi hamkorlik samimiy bo'lishi g'oyat muhimligini qayta-qayta uqtiradi.

Qadimda milliy an'ana bo'yicha shogirdlikning o'ziga xos odob-axloq qoidalari bo'lgan. Chunonchi, Husayn Voiz Koshifiy bunday deydi: «Agar sendan shogirdlik odobi nechta, deb so'rasalar, yettita degin. Avvalo, o'z ishiga yaxshi munosabatda bo'lish, ya'ni o'z kasbini sevish; o'z kasbiga e'tiqod qo'yish va unga ishonish; ustoz oldida haqsevar bo'lish, o'z nojo'ya odatlarini tark etish; ko'rish lozim bo'lmagan hamma narsalardan nigohini olib qochish; eshitish mumkin bo'lmagan barcha narsalarga quloq solmaslik; barcha nolo'iyq ishlardan qo'l tortish; ustoziga zid bo'lgan kishilar bilan muomala qilmaslik. Agar shogirdlikning asoslari nechta deb so'rasalar, oltita degin: rostgo'ylik, vafodorlik, mas'uliyatlilik, nasihatni quloqqa olish, ozor bermaslik, sir saqlash. Shogirdlikning eng yaxshi xislati nima deb so'rasalar, poklik deb javob beriladi. Shogirdlikning noyob gavhari nima deb so'rasalar, hamkasb do'stlarini xushnud etish deb javob bergin» deya takidlaganlar.

Bugungi kunda jadallik bilan rivojlanayotgan respublikamizning qaysi bir sohasiga qaramaylik hammasi o'z yo'nalishiga mos yangicha innovatsiya va yo'nalish rivojlanishiga yordam beruvchi tizimlarni yaratmoqda. Bu tizimlar esa soha rivojlanishining asosini tashkil etmoqda. Ta'lim jarayoni jadal rivojlanib borayotgan bugungi kunda asosiy mazmun beruvchi asosiy tizimlardan biri "Ustoz-shogird" tizimidir. Bugungi kunda mustaqil fikrlovchi, ishonch-e'tiqodli shogirdlarni tarbiyalashda va zamon talabiga mos kadrlar yetkazib berishda bu tizim alohida o'ringa ega.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning shunday so'zlari bor: "Biz oldimizga qanday vazifa qo'ymaylik, qanday vazifani yechish zaruriyati tug'ilmasin, gap oxir-oqibat baribir kadrlarga borib taqalaveradi. Aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimiz kelajagi, o'rnimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda, qanday kadrlar tayyorlashga bog'liq".

Zamonaviy ta'limda "ustoz-shogird" munosabatining ahamiyati



Ustoz-shogird munosabati qadimdan ilm-fan, hunar va ma'naviyatning asosiy uzviy qismlaridan biri bo'lib kelgan. Islomiy ilmiy an'analar, Sharq mutafakkirlarining hayoti, hamda buyuk allomalarimizning ilm olish yo'llari aynan ustoz-shogird tizimi asosida shakllangan. Bugungi kunda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining rivojlanib borayotganiga qaramay, bu an'anaviy munosabat o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q — aksincha, yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ustoz – bilim, tajriba va tarbiya manbai bo'lsa, shogird – o'rganishga intiluvchi, o'sishga tayyor shaxsdir. Bu ikki tomonlama aloqada faqatgina bilim emas, balki hayotiy tajriba, kasb-hunar, odob-axloq, madaniyat, mas'uliyat va insoniy qadriyatlar ham uzatiladi. Bunday jarayon har ikki tomonni ham shakllantiradi: ustoz shogird orqali o'z bilim va tajribasini boyitadi, shogird esa ustozning yo'l-yo'rig'ida kamol topadi.

Zamonaviy ta'limda bu munosabat qanday namoyon bo'lmoqda?

Bugungi kun ta'limi tezkor, innovatsion va texnologik jihatdan rivojlangan bo'lishi bilan birga, insoniy aloqalar, xususan ustoz va shogird o'rtasidagi ishonch, mehr, hurmat kabi qadriyatlarni saqlab qolishi zarur. Raqamli ta'lim vositalari, onlayn darslar va sun'iy intellekt vositalari bilim olish imkoniyatlarini kengaytirsada, haqiqiy insoniy aloqani to'liq almashtira olmaydi. Shu sababli, ustoz-shogird munosabati zamonaviy ta'limda doimiy e'tiborda bo'lishi kerak.

Xulosa o'rnida

Ustoz-shogird munosabati har qanday jamiyat taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan ijtimoiy, axloqiy va ilmiy asosdir. Bugungi ta'lim tizimida zamonaviy vositalarni samarali qo'llash bilan birga, ushbu qadimiy va samarali metodologiyani ham rivojlantirish muhimdir. Chunki insonni inson qiladigan eng muhim jihatlardan biri — bu unga yo'l ko'rsatgan ustozidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mavlonova R.A., Raxmonqulova N.H. va boshq. Umumiy pedagogika.- T.: Fan va texnologiyalar.
2. D. Malikova. Sharq mamlakatlarida ustoz-shogirdlik an'analarining shakllanishi va rivojlanishi. Maqola.Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 April 2022
3. O'.Q Tolipov. "Ustoz - shogirdlik qadriyatlari"-risola; Toshkent "Nizomiy nomidagi TDPU"-2015.
4. "Ta'limda "ustoz-shogird" tizimi – sifat va samaradorlik kafolati" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari. Navoiy-2020